



**Received:** February 10, 2026  
**Accepted:** March 24, 2026  
**Available online:** March 25, 2026

## **Nafruza Azizova**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

## **Nafruza Azizova**

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences  
Uzbekistan State World Languages University  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: azizovanafruz@gmail.com  
ORCID iD: 0009-0008-1856-1064

### **FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA INSON TASHQI KO'RINISHI KONSEPTINING LINGVOKOGNITIV IFODALANISHI**

#### **ANNOTATSIYA**

Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar tizimida inson tashqi ko'rinishi konseptining lingvokognitiv ifodasini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi inson tashqi ko'rinishini ifodalovchi frazeologizmlarning konseptual asoslarini aniqlash, ularning inson haqidagi kognitiv tasavvurlarni shakllantirishdagi rolini ochib berish hamda metafora va metonimiya orqali ifodalanish xususiyatlarini yoritishdir.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: inson tashqi ko'rinishi konseptining nazariy asoslarini tahlil qilish, somatik frazeologik birliklarni tasniflash, ularning semantik va struktur xususiyatlarini o'rganish, ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida qiyosiy-tipologik tahlil olib borish va frazeologik birliklarning ichki shaklini konseptual metafora va metonimiya asosida izohlash.

Tadqiqot metodlari lingvokognitiv yondashuvga asoslanib, semantik, deskriptiv, interpretativ va qiyosiy-tipologik metodlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, konseptual metafora va metonimiya nazariyalari frazeologik birliklarning mazmunini chuqur tushinishda asosiy vosita sifatida ishlatildi. Zamonaviy tadqiqotlar ham somatik frazeologizmlar aynan shu kognitiv mexanizmlar orqali shakllanishini tasdiqlaydi. Binobarin, somatik frazeologik birliklar insonning tashqi qiyofasi va ichki dunyosi, individual tajribasi va ijtimoiy mavqeyini o'zaro uyg'unlikda ifodalovchi murakkab semiotik tizim sifatida talqin qilinadi. Ular til, tafakkur va madaniyat kesishgan nuqtada shakllanib, inson

### **LINGUOCOGNITIVE REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF HUMAN PHYSICAL APPEARANCE IN PHRASEOLOGICAL UNITS**

#### **ABSTRACT**

This study is devoted to the analysis of the linguocognitive representation of the concept of human physical appearance in the system of phraseological units in English and Uzbek. The primary objective of the research is to identify the conceptual foundations of phraseological units that denote human appearance, to elucidate their role in shaping cognitive representations of a person, and to reveal the mechanisms of their expression through metaphor and metonymy.

Furthermore, the research sets out several specific tasks: to examine the theoretical underpinnings of the concept of human physical appearance; to classify somatic phraseological units; to investigate their semantic and structural properties; to conduct a comparative-typological analysis based on English and Uzbek linguistic data; and to interpret the internal form of phraseological units through the frameworks of conceptual metaphor and metonymy.

From a methodological perspective, the study is grounded in a linguocognitive approach and employs a combination of semantic, descriptive, interpretative, and comparative-typological methods. Contemporary research likewise confirms that somatic phraseological units are largely shaped by these cognitive mechanisms. Accordingly, such units can be interpreted as a complex semiotic system that integratively reflects an individual's physical appearance, inner world, personal experience, and social status. Emerging at the intersection of language, cognition, and culture, they play a crucial role in

haqidagi konseptual bilimlarni kodlash, saqlash va uzatishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois somatik frazeologizmlar nafaqat lingvistik hodisa, balki kognitiv model, madaniy kod va ijtimoiy ongning ifodasi sifatida kompleks ilmiy fenomen sifatida qaraladi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, inson tashqi ko'rinishini ifodalovchi frazeologizmlar asosan somatik komponentlar orqali yuzaga keladi va ular nafaqat jismoniy belgilarni, balki insonning ijtimoiy va madaniy obrazini ham aks ettiradi. Ingliz tilida konsept individual xususiyatlar orqali, o'zbek tilida esa ijtimoiy-estetik mezonlar asosida talqin qilinadi. Frazeologik birliklar inson tashqi ko'rinishi konseptini til va tafakkur o'zaro bog'liqligi asosida shakllantirib, milliy-madaniy dunyoqarashni ifodalovchi muhim lingvistik vosita sifatida xulosalanadi.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birliklar, inson tashqi ko'rinishi, lingvokognitiv yondashuv, konseptual metafora, metonimiya, somatik frazeologizmlar, qiyosiy-tipologik tahlil, milliy-madaniy kontekst, lingvistik madaniyat, ijtimoiy-estetik obraz.

## KIRISH

Hozirgi zamon tilshunosligida antropotsentrik paradigma doirasida til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, kognitiv lingvistika "konsept"ni inson ongida shakllanadigan, borliq haqidagi bilimlarni umumlashtiruvchi va tizimlashtiruvchi asosiy mental birlik sifatida talqin qiladi [Abduazizov, 2004]. Til esa ushbu konseptlarning verbal ifoda vositasi bo'lib, unda milliy-madaniy tajriba va ijtimoiy stereotiplar aks etadi. Inson tashqi ko'rinishi konsepti kognitiv tizimda muhim o'rin tutadi, chunki u insonning nafaqat fizik belgilarini, balki estetik baholash, ijtimoiy qarash va madaniy qadriyatlarni ham qamrab oladi. Mazkur konsept tilning ayniqsa frazeologik qatlamida yaqqol namoyon bo'ladi [Gibbs, 1994; Dobrovolskiy & Piirainen, 2005].

Frazeologik birliklar obrazlilik, emotsionallik va baholash xususiyatiga ega bo'lib, ular orqali xalqning tashqi ko'rinishga oid tasavvurlari va stereotiplari ifodalanadi [Glucksberg, 2001]. Frazeologizmlar tarkibida inson tashqi ko'rinishi turli semantik yo'nalishlarda – yuz, gavda, qomat, umumiy qiyofa kabi komponentlar orqali ifodalanadi hamda ular asosida go'zallik va xunuklik haqidagi konseptual tasavvurlar shakllanadi. Bunda metafora va metonimiya kabi kognitiv mexanizmlar muhim rol o'ynaydi, chunki aynan shu vositalar orqali konsept mazmuni obrazli tarzda ifodalanadi [Gofurov, 1995, 2017]. Shu jihatdan inson tashqi ko'rinishi konseptining frazeologiyada lingvokognitiv ifodasini o'rganish til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib berishga xizmat qiladi [Karamatova,

encoding, preserving, and transmitting conceptual knowledge about human beings.

The findings of the study indicate that phraseological units denoting human physical appearance are predominantly formed through somatic components and reflect not only physical traits but also the social and cultural image of an individual. Thus, phraseological units function as a significant linguistic means that constructs the concept of human appearance through the interrelation of language and thought, while simultaneously expressing a national and cultural worldview.

**Key words:** phraseological units, human physical appearance, linguocognitive approach, conceptual metaphor, metonymy, somatic phraseological units, comparative-typological analysis, national-cultural context, linguistic culture, socio-aesthetic image.

2000; Lutfullayev, 2012; Jurakulov, 2015]. Mazkur tadqiqotning maqsadi – inson tashqi ko‘rinishi konseptining frazeologik birliklar orqali ifodalanish xususiyatlarini lingvokognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilishdan iborat.

Frazeologiya – tilshunoslikning tayyor, barqaror va ko‘chma ma’noga ega ifodalarni o‘rganadigan bo‘limi bo‘lib, XIX–XX asr boshlarida shakllangan [Bally, 1909]. Sh.Balli frazeologiyani “til birliklarining barqaror, ma’nosi o‘zgaruvchan va ko‘chma bo‘lgan shakllarini tadqiq qiluvchi fan” deb ta’riflagan. N.N. Amosova frazeologik birliklarni “kontekstsiz anglash mumkin bo‘lgan tayyor leksik birliklar” sifatida ko‘rib, ularni frazeologik fond tarkibida o‘rganishni taklif qilgan [Amosova, 1963; 202]. A.V. Kunin frazeologiyani tarjima va lug‘atshunoslik jihatlarini chuqur tahlil qilib, uni lingvistik va madaniy o‘zaro bog‘liqliklarni o‘rganadigan fan sifatida baholagan [Kunin, 1986]. O‘zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev frazeologik birliklarni tilning tayyor, barqaror va ko‘chma ma’noga ega birikmalari sifatida tavsiflagan [Rahmatullayev, 1992], N.Mahmudov [Mahmudov, 2010], B.Yo‘ldoshev va A.Mamatov esa ularni milliy tafakkur va madaniyatning ajralmas qismi sifatida o‘rganishni zarur deb hisoblagan [Mamatov, 2000; 169].

Shu bilan birga, tilshunoslikda konsept lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida qaraladi. Konseptni o‘rganish uchun millatning dunyoqarashi, turmush-sharoiti, mentaliteti va an’analari tadqiq qilinib, uning til va frazeologik birliklardagi ifodasi aniqlanadi [Nasrullayeva, 2018; Odilova, 2025]. O‘zbek tilshunosligida frazeologik va paremiologik birliklar dastlab strukturaviy va stilistik mezonlarda tahlil qilingan bo‘lsa, bugungi kunda ularning konseptual, semantik va funksional xususiyatlarini aniqlash, xalq dunyoqarashi va lingvistik tafakkurini yoritish ustuvor yo‘nalishga aylangan [Permyakov, 1988; 12; Moldovan, 1971; 80]. Shunday qilib, frazeologik birliklar inson tashqi ko‘rinishi konseptini nafaqat nominativ, balki baholovchi va obrazli jihatdan ham aks ettiruvchi muhim til vositasi hisoblanadi. Ular orqali muayyan jamiyatning estetik me’yorlari, qadriyatlar hamda stereotip tasavvurlari namoyon bo‘ladi [Mirtojiyev, 1992; Jumanazarov, 2005; Kövecses, 2010]. Inson tashqi ko‘rinishi konseptining frazeologiyada lingvokognitiv jihatdan tadqiq etilishi esa konseptning ichki tuzilmasi, uning semantik qatlamlari va madaniy komponentlarini aniqlash imkonini beradi.

### **TADQIQOT METODLARI**

Mazkur tadqiqotda inson tashqi ko‘rinishi konseptining o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik hamda paremiyalardagi lingvokognitiv ifodasini kompleks tarzda o‘rganish maqsadida o‘zaro uyg‘unlashgan metodlar tizimi qo‘llanildi. Tanlangan metodologiya zamonaviy lingvistikaning antropotsentrik va kognitiv paradigmasiga asoslanib, frazeologik birliklarni til–tafakkur–madaniyat uchligi doirasida tahlil qilish imkoniyatini taqdim etdi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham frazeologik birliklarni o‘rganishda tavsifiy, semantik, kognitiv va qiyosiy yondashuvlarning integratsiyasi samarali natija berishi ta’kidlanadi.

*Tavsiflash metodi* frazeologik va paremiyalarning semantik, strukturaviy, lingvokognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlarini tizimli ravishda bayon qilishga

xizmat qildi. Tavsiflash jarayonida har bir birlikning ichki shakli (inner form), obrazlilik darajasi, ekspressivligi va konnotativ yuklamasi aniqlanib, ularning nutqdagi funksional imkoniyatlari ochib berildi. Masalan, “yorug‘ yuz bilan” yoki “beti qattiq” kabi birliklar nafaqat tashqi qiyofani, balki ijtimoiy baho va psixologik holatni ifodalovchi kompleks birlik sifatida tavsiflandi.

*Tasniflash metodi* orqali tadqiqot materiali semantik va konseptual mezonlar asosida guruhlariga ajratildi. Jumladan, (a) somatik frazeologizmlar (yuz, ko‘z, qo‘l, qomat va b.); (b) estetik baho bildiruvchi birliklar; (d) emotsional-ekspressiv birliklar; (e) ijtimoiy-aksiologik frazemalar. Bunday tasnif frazeologik birliklarning ichki semantik tizimini aniqlash, ularning funksional yuklamasini belgilash hamda tarjima jarayonidagi muammolarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotlarda semantik tasniflash frazeologizmlarni tizimli anglashning muhim bosqichi sifatida qaraladi.

*Qiyosiy-chog‘ishtirma metod* o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarni parallel ravishda tahlil qilishga imkon berdi. Qiyoslash orqali (a) universal kognitiv modellarga asoslangan o‘xshashliklar; (b) milliy-madaniy tafovutlar; (d) obrazli tafakkurdagi farqlar aniqlashtirildi. Masalan, “bo‘yi ikki qarich” va “knee-high to a grasshopper” birliklari umumiy metaforik asosga ega bo‘lsa-da, ularning obraz manbalari turlicha madaniy tajribaga borib taqaladi. Kognitiv-qiyosiy tadqiqotlar ham frazeologik ma‘no shakllanishida madaniy kontekst muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

*Kognitiv yondashuv* frazeologik birliklar ortida yotgan konseptual strukturalarni aniqlashga xizmat qildi. Bu metod orqali (a) konseptual metafora va metonimiya mexanizmlari; (b) inson tajribasiga asoslangan bilim modellari; (d) til birliklarining mental reprezentatsiyasi tahlil qilindi. Masalan, “ko‘ngilga yo‘l topmoq” yoki “bir oyog‘i yerda, bir oyog‘i go‘rda” kabi birliklar insonning ichki dunyosi, emotsional holati va ekzistensial tajribasini aks ettiruvchi kognitiv modellarning ifodasi sifatida talqin qilindi. Tadqiqotlar frazeologizmlar kognitiv modellar asosida shakllanishini ko‘rsatadi.

*Semantik tahlil* frazeologik birliklarning denotativ, konnotativ va obrazli ma‘nolarini aniqlashga qaratildi. Bu jarayonda komponentlararo semantik munosabatlar, metaforik kengayish va ma‘no ko‘chish turlari tahlil qilindi. Masalan, “yuzi oydek” birligida “yuz” va “oy” komponentlari o‘rtasidagi assotsiativ bog‘lanish orqali go‘zallik konsepti ochib berildi.

*Pragmatik metod* frazeologik birliklarning nutq jarayonidagi funksional yuklamasini, kommunikativ maqsadga xizmat qilishini va kontekstga bog‘liq ma‘no o‘zgarishlarini o‘rganishga imkon berdi. Jumladan, “put on a brave face” yoki “yuzini yorug‘ saqlamoq” kabi birliklar orqali ijtimoiy rol, nutq strategiyasi va emotsional boshqaruv mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqotlar frazeologizmlar kommunikativ niyatni ifodalashda muhim pragmatik vosita ekanini ko‘rsatadi.

*Etimologik yondashuv* frazeologik birliklarning tarixiy shakllanishi, kelib chiqish manbalari va madaniy ildizlarini aniqlashga xizmat qildi. Bu metod orqali xalq og‘zaki ijodi, tarixiy tajriba va milliy dunyoqarashning frazeologizmlarda qanday aks etgani o‘rganildi. Natijada birliklarning semantik motivatsiyasi va madaniy konnotatsiyasi chuqurroq ochib berildi.

Metodlarning kompleks va o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llanilishi tadqiqotning ilmiy ishonchligi hamda natijalarining asoslanganligini ta‘minladi. Integrativ yondashuv orqali frazeologik birliklarning ko‘p qatlamli tabiati, ularning lingvokognitiv va lingvomadaniy mohiyati, shuningdek, o‘zbek va ingliz tillari o‘rtasidagi umumiylik va farqlar tizimli ravishda ochib berildi. Bunday yondashuv frazeologizmlarni faqat til hodisasi sifatida emas, balki inson tafakkuri, ijtimoiy tajribasi va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq murakkab fenomen sifatida talqin qilish imkonini beradi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda ham frazeologiyani o‘rganishda kognitiv, semantik va pragmatik yondashuvlarning integratsiyasi zarur metodologik tamoyil sifatida e‘tirof etiladi. Qo‘llanilgan metodlar tizimi inson tashqi ko‘rinishi konseptining til tizimidagi ifodasini chuqur va izchil tahlil qilish, frazeologik birliklarning ichki semantik tuzilishi hamda ularning konseptual asoslarini aniqlash, shuningdek, tillararo lingvokognitiv va madaniy munosabatlarni kompleks tarzda yoritish imkonini berdi.

### **NATIJALAR**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, inson tashqi ko‘rinishi konsepti ingliz va o‘zbek frazeologiyasida lingvokognitiv jihatdan murakkab, ko‘p qatlamli va tizimli hodisa sifatida shakllanadi. Mazkur konsept faqat tashqi belgilar yig‘indisi bilan chegaralanmaydi, balki inson haqidagi ijtimoiy tasavvurlar, stereotiplar, qadriyatlar tizimi va madaniy kodlar bilan uzviy bog‘langan holda rivojlanadi. Shu sababli frazeologik birliklar orqali inson qiyofasi nafaqat tasvirlanadi, balki unga nisbatan jamiyat tomonidan shakllangan estetik, axloqiy va ijtimoiy baholar ham kompleks tarzda ifodalanadi. Bu holat frazeologizmlarning til tizimida nominativ funksiyadan tashqari, aksiologik (baholovchi) va ekspressiv funksiyalarni ham bajarishini aniq tasdiqlaydi [Gak i dr., 1988]. Zamonaviy tadqiqotlar ham metafora va frazeologik birliklar inson tafakkurini shakllantirishda faol rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Qiyosiy tahlillar natijasida aniqlanishicha, har ikki tilda frazeologik birliklar semantik va obrazli xususiyatlarga ega bo‘lib, inson tashqi ko‘rinishini ifodalashda metaforik va assotsiativ tafakkur muhim o‘rin tutadi. Xususan, tana a‘zolari (somatizmlar), ranglar, hayvonlar obrazi hamda turli predmetlarga asoslangan frazemalar orqali tashqi qiyofa baholanadi va shu orqali muayyan stereotipik tasavvurlar shakllantiriladi. Bu esa frazeologizmlarning umumiy kognitiv modellarga tayangan holda shakllanishini ko‘rsatadi. Mazkur holat J.Lakof va M.Jonson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi bilan mos keladi, unda inson tafakkuri abstrakt tushunchalarni konkret tajriba asosida, ya‘ni metaforik modellar orqali tizimlashtirishi ta‘kidlanadi [Lakoff & Johnson, 1980; 97]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, frazeologik ma‘no ko‘pincha metafora va metonimiya kabi kognitiv mexanizmlar asosida shakllanadi va bu jarayon tilning ichki semantik tizimini belgilaydi.

Shu bilan birga, frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari ham yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbek frazeologiyasida inson tashqi ko‘rinishi ko‘proq milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an‘anaviy estetik qarashlar asosida talqin qilinadi

hamda bunda kollektiv baholash modeli ustunlik qiladi. Bunda insonning tashqi qiyofasi uning ijtimoiy maqomi, axloqiy fazilatlar va jamiyatdagi o'rni bilan uzviy bog'liq holda baholanadi. Ingliz tilida esa individual baholash, funksional tavsif va nisbatan universal estetik me'yorlarga tayanish ko'proq kuzatiladi. Bu til tizimida tashqi qiyofa ko'proq shaxsiy xususiyat, individual identitet va kommunikativ samaradorlik nuqtayi nazaridan baholanadi.

Mazkur farqlar til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi. M.A.K. Xollidayning tizimli-funksional yondashuviga ko'ra, til ijtimoiy tizimning mahsuli bo'lib, unda jamiyatning qadriyatlar va tajribasi aks etadi [Halliday, 1978]. Shu nuqtayi nazardan, frazeologik birliklar ham muayyan lingvomadaniy muhitda shakllanib, o'sha jamiyatning dunyoqarashi va baholash mezonlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Inson tashqi ko'rinishi konsepti ingliz va o'zbek frazeologiyasida til, tafakkur va madaniyatning integratsiyasi asosida shakllangan murakkab lingvokognitiv model sifatida namoyon bo'ladi. Frazeologik birliklar esa ushbu konseptni ifodalovchi asosiy vositalardan biri bo'lib, ular orqali inson haqidagi bilimlar tizimi, ijtimoiy stereotiplar va madaniy qadriyatlar obrazli va tizimli shaklda ifodalanadi.

Shu bilan birga, frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari ham yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek frazeologiyasida inson tashqi ko'rinishi ko'proq milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'anaviy estetik qarashlar asosida talqin qilinadi hamda bunda kollektiv baholash modeli ustunlik qiladi. Bunday yondashuvda tashqi qiyofa shaxsning ijtimoiy maqomi, axloqiy fazilatlar va jamiyatdagi o'rni bilan uzviy bog'liq holda baholanadi. Ingliz tilida esa individual baholash, funksional tavsif va nisbatan universal estetik me'yorlarga tayanish kuzatiladi, bunda tashqi ko'rinish ko'proq shaxsiy identitet va individual xususiyatlarning ifodasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu tafovutlar til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi hamda lingvomadaniy yondashuvning metodologik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi [Halliday, 1978]. Zamonaviy tadqiqotlar ham frazeologik birliklar milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarning til tizimidagi ifodasi ekanini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ham ko'rsatadiki, frazeologik birliklar semantik jihatdan yaxlit bo'lib, ularning tarkibiy komponentlari ma'lum darajada o'z leksik ma'nolarini saqlagan holda umumiy obrazli va ko'chma ma'no hosil qiladi. Ushbu xususiyat frazeologizmlarning ichki strukturasi, semantik integratsiyasi va ularning qayta ishlab chiqarilish imkoniyatlarini belgilaydi. Bu borada V.V. Vinogradov frazeologik birliklarni semantik yaxlitlik hamda komponentlarning nisbiy nomustaqilligi bilan tavsiflaydi, ya'ni frazeologizm tarkibidagi birliklar mustaqil semantik funksiyani qisman yo'qotib, yagona ma'no tizimiga birlashadi [Vinogradov, 1977; 118]. A.V. Kunin esa frazeologizmlarni tilning alohida mikrosistemi sifatida baholab, ularning barqarorlik, obrazlilik va reproduktivlik (qayta qo'llanish) xususiyatlarini asosiy belgi sifatida ajratib ko'rsatadi [Kunin, 1986; 71]. Bu yondashuv frazeologik birliklarning til tizimidagi o'rni aniqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning lingvokognitiv model sifatida inson haqidagi bilimlarni tizimlashtirish, saqlash va uzatishda muhim vosita

ekanligini ko'rsatdi. Frazeologizmlar orqali jamiyatda shakllangan konseptual tasavvurlar, stereotiplar va madaniy bilimlar avlodan-avlodga uzatiladi va til ongida mustahkamlanadi. Shu jihatdan ular kollektiv xotiraning til shaklidagi ifodasi sifatida ham talqin qilinadi. Bu fikr A.Verjbikaning til birliklari inson tafakkuri, mental model va madaniy semantika bilan bevosita bog'liq degan nazariy qarashlari bilan hamohangdir [Wierzbicka, 1980; 270]. Kognitiv yondashuv doirasida frazeologik birliklar insonning borliqni idrok etish, tasniflash va baholash mexanizmlarini aks ettiruvchi konseptual vosita sifatida qaraladi.

Inson tashqi ko'rinishi konsepti ingliz va o'zbek frazeologiyasida til, tafakkur va madaniyat integratsiyasining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Frazeologik birliklar ushbu konseptni ifodalovchi asosiy lingvokognitiv vositalardan biri bo'lib, ular orqali inson haqidagi murakkab, ko'p qatlamli va tizimli bilimlar majmui ifodalanadi. Mazkur natijalar qiyosiy tilshunoslik, lingvokognitiv va lingvomadaniy tadqiqotlar rivojida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ular kelgusida frazeologik birliklarni korpus lingvistikasi asosida o'rganish, interdisiplinar yondashuvlarni kengaytirish hamda til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yanada chuqurroq tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi [Komissarov, 1990; 278].

### **MUNOZARA**

Tashqi qiyofani ifodalovchi frazeologik birliklarning lingvokognitiv tahlili shuni ko'rsatadiki, ular til tizimida oddiy leksik birlik sifatida emas, balki inson tafakkurida shakllangan murakkab konseptual strukturalarni verbal ifodalovchi kognitiv mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. Bunday frazeologizmlar orqali inson nafaqat tashqi ko'rinishni tasvirlaydi, balki ichki psixologik holat, emotsional kechinmalar, ijtimoiy munosabatlar va madaniy baholash mezonlarini ham yagona konseptual tizim doirasida angelaydi va ifodalaydi. Shu jihatdan frazeologik birliklar til tizimining oddiy nominativ vositasi emas, balki inson ongida shakllangan bilim, tajriba va madaniy stereotiplarni obrazli tarzda modellashtiruvchi lingvokognitiv mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Demak, ular til va tafakkur o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni ta'minlovchi asosiy kognitiv vositalardan biri, ya'ni konseptual vositachilik funksiyasini bajaradi.

Kognitiv tilshunoslik doirasida, xususan, J.Lakof va M.Jonson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi hamda "embodiment" (tana orqali fikrlash) tamoyiliga ko'ra, inson tafakkuri abstrakt tushunchalarni bevosita jismoniy va sezgi tajribasi asosida shakllantiradi [Lakoff & Johnson, 1980]. Ya'ni, inson atrof-muhitni idrok etishda o'z tanasi, sezgi organlari va kundalik amaliy faoliyatiga tayanadi va aynan shu tajriba keyinchalik murakkab ijtimoiy, psixologik hamda madaniy tushunchalarni anglashning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotlar ham shuni ko'rsatadiki, tana a'zolari asosidagi metaforalar va frazeologik birliklar abstrakt bilimlarni tushuntirish va tizimlashtirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular konkret tajriba bilan bog'langan holda kognitiv jarayonlarni faollashtiradi.

Shu nuqtayi nazardan, somatik frazeologizmlar inson tafakkurining "tana – ong – til" uchligi asosida shakllanishini yaqqol namoyon etadi. Inson ongida murakkab

tushunchalar ko‘pincha “yuz”, “ko‘z”, “qo‘l”, “yurak”, “bosh” kabi tana a‘zolari orqali metaforik tarzda konseptuallashtiriladi. Masalan, “yurak” hissiyotlar markazi sifatida, “bosh” aql va tafakkur markazi sifatida, “ko‘z” esa idrok va nazorat vositasi sifatida talqin qilinadi. Bu kabi metaforik mosliklar tasodifiy emas, balki insonning biologik va tajribaviy tabiatiga asoslangan universal kognitiv mexanizmlarning mahsulidir. Shu bilan birga, ushbu birliklarning konkret semantik realizatsiyasi muayyan madaniyat va til tizimiga xos xususiyatlar bilan boyitiladi.

Bundan tashqari, frazeologik birliklar ko‘pincha bir vaqtning o‘zida bir necha kognitiv mexanizmlarni – metafora, metonimiya va konseptual integratsiyani – o‘zida mujassamlashtiradi. Bu esa ularning semantik murakkabligini va ko‘p qatlamli tuzilishini belgilaydi. Natijada frazeologizmlar insonning borliqni idrok etish, uni kategoriyalash va baholash jarayonlarini aks ettiruvchi ko‘p funksiyali lingvokognitiv birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Tashqi qiyofani ifodalovchi frazeologik birliklar insonni alohida tashqi belgilar yig‘indisi sifatida emas, balki yaxlit kognitiv, psixologik va ijtimoiy tizim sifatida tasvirlaydi. Ular orqali insonning ichki dunyosi, ijtimoiy mavqeyi va madaniy identiteti o‘zaro uyg‘unlikda ifodalanadi. Shu bois frazeologik birliklar nafaqat lingvistik hodisa, balki inson tafakkuri va madaniy ongining konseptual modeli sifatida ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur nazariy yondashuvdan kelib chiqib, o‘zbek va ingliz tillaridagi somatik frazeologik birliklar “tana tajribasi – konseptual fikrlash manbai” modeliga asoslanadi. Ushbu modelga ko‘ra, insonning jismoniy tajribasi va tana bilan bog‘liq idroki abstrakt tushunchalarni shakllantirish va ifodalashda asosiy kognitiv manba vazifasini bajaradi. Bunda “yuz”, “ko‘z”, “qo‘l”, “oyoq”, “bosh”, “yurak” kabi komponentlar oddiy anatomik birlik sifatida emas, balki keng semantik va konseptual yuklamaga ega bo‘lgan ramziy birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali insonning ijtimoiy mavqeyi, emotsional holati, aqliy faoliyati va hayotiy tajribasi tizimli hamda konseptual jihatdan ifodalanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, somatik komponentlar frazeologik birliklarning semantik yadrosini tashkil etib, ularning obrazlilik va ko‘pma’noliligini ta’minlaydi.

Xususan, “yuz” komponenti ko‘pincha ijtimoiy identitet, obro‘-e’tibor va jamiyat oldidagi maqom bilan bog‘liq holda konseptuallashtiriladi hamda shaxsning ijtimoiy “men”ini ifodalovchi markaziy kategoriya sifatida xizmat qiladi. “Ko‘z” esa idrok, sezgirlik va ichki ruhiy holatning tashqi indikatoriga aylanib, insonning psixologik kechinmalarini aks ettiruvchi vosita sifatida ishlaydi. “Qo‘l” komponenti inson faoliyati, mehnat, amaliy tajriba va ijtimoiy ishtirokni ifodalovchi konseptual modelni tashkil etadi. “Oyoq” esa harakat, yo‘nalish, hayotiy yo‘l va rivojlanish jarayonlari bilan bog‘liq konseptual tuzilmalarning ifodachisi hisoblanadi. “Bosh” aql, tafakkur va qaror qabul qilish markazi sifatida konseptuallashtirilsa, “yurak” hissiyot, emotsional tajriba va ichki kechinmalarining markaziy modeli sifatida talqin qilinadi. Bu kabi somatik komponentlar orqali inson haqidagi bilimlar tizimi konkret jismoniy tajribadan abstrakt va murakkab konseptual darajaga ko‘tariladi.

Shu tarzda somatik frazeologizmlar inson tajribasining tana bilan uzviy

bog'liqligini yaqqol namoyon etadi va abstrakt tushunchalarning konkret tajriba asosida shakllanish mexanizmini ochib beradi. Bu holat kognitiv tilshunoslikda asosiy tamoyillardan biri sifatida qaralib, til, tafakkur va madaniyatning o'zaro integratsiyasini tasdiqlaydi. Xususan, konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, inson tafakkuri "manba domen" (tana tajribasi) va "maqsad domen" (abstrakt tushuncha) o'rtasidagi moslik orqali tashkil topadi. Shu bois somatik metaforalar insonning borliqni anglash va tushuntirish jarayonida universal kognitiv vosita sifatida xizmat qiladi.

